

## UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM SIFATINI BOSHQARISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR.

**Karimova Maxbuba Mukimjonovna**

*A. Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti mustaqil tadqiqotchisi  
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti  
"Pedagogika" kafedrası o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Maqolada umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini boshqarish jarayoniga ta'sir etuvchi asosiy omillar tahlil qilingan. Ta'lim sifatini oshirishda pedagogik boshqaruvning samaradorligi, o'quvchilar kompetensiyalarini shakllantirish, o'qituvchilarning kasbiy salohiyati, moddiy-texnik baza, o'quv dasturlari sifati, ota-ona va jamiyat bilan hamkorlikning o'rni ilmiy asosda ko'rib chiqiladi. Shuningdek, ta'lim sifatini baholashda kvalimetriya yondashuvlaridan foydalanish, monitoring va reyting tizimlarining ahamiyati yoritiladi. Tadqiqot natijalari sifat boshqaruvini takomillashtirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar bilan boyitilgan bo'lib, umumiy o'rta ta'lim muassasalari faoliyatida innovatsion boshqaruv mexanizmlarini qo'llashning xususiyatlari bayon qilingan.*

**Kalit so'zlar:** *ta'lim sifati, boshqaruv, umumiy o'rta ta'lim, kvalimetriya, monitoring, reyting tizimi, pedagogik innovatsiyalar, o'qituvchi kompetensiyasi, o'quv jarayoni, ta'lim muassasasi, ta'lim samaradorligi, baholash mezonlari, ta'lim menejmenti.*

## ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА УПРАВЛЕНИЕ КАЧЕСТВОМ ОБРАЗОВАНИЯ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ.

**Каримова Махбуба Мукимжонова**

*Независимый научный сотрудник Национального института педагогического мастерства имени А. Авлони  
Преподаватель кафедры «Педагогика» Ташкентского государственного педагогического университета  
имени Низоми*

**Аннотация:** *В статье анализируются основные факторы, влияющие на управление качеством образования в общеобразовательных школах. Рассматриваются эффективность педагогического управления, формирование компетенций учащихся, профессиональный потенциал учителей, качество учебных программ, материально-техническая база, а также взаимодействие с родителями и обществом. Особое внимание уделено применению квалиметрических подходов, мониторинга и рейтинговых систем в оценке качества образования. Полученные результаты включают практические рекомендации по совершенствованию управления качеством и подчеркивают*

*актуальность внедрения инновационных механизмов управления в общеобразовательных учреждениях.*

*Ключевые слова: качество образования, управление, общеобразовательная школа, квалиметрия, мониторинг, рейтинговая система, педагогические инновации, компетентность учителя, учебный процесс, образовательное учреждение, эффективность образования, критерии оценивания, менеджмент образования.*

## **FACTORS INFLUENCING THE MANAGEMENT OF EDUCATION QUALITY IN GENERAL SECONDARY EDUCATION INSTITUTIONS.**

**Karimova Makhbuba Mukimzhonovna**

*Independent researcher at the National Institute of Pedagogical Excellence named after A. Avloni Lecturer at the Department of Pedagogy, Tashkent State Pedagogical University named after Nizomi*

**Abstract:** *This article analyzes the key factors influencing the management of education quality in general secondary education institutions. It examines the effectiveness of pedagogical management, the development of student competencies, teachers' professional capacity, the quality of curricula, material and technical resources, and collaboration with parents and the community. The study also highlights the importance of applying qualimetric approaches, monitoring, and rating systems in assessing education quality. The findings provide practical recommendations aimed at improving quality management and emphasize the relevance of implementing innovative management mechanisms in general secondary education institutions.*

**Keywords:** *education quality, management, general secondary education, qualimetry, monitoring, rating system, pedagogical innovations, teacher competence, learning process, educational institution, efficiency of education, assessment criteria, education management.*

Respublikamiz ta'lim tizimida ko'plab islohotlar kadrlar tayyorlash ta'lim turlari o'rtasida aloqa va uzviylik ta'minlanishidagi kamchiliklarni bartaraf etishga xizmat qilmoqda. Bugungi kunda kadrlar tayyorlash bo'yicha davlat siyosatida hudularning ijtimoiy-iqtisodiy o'ziga xosligi va talab hamda ehtiyojlarining to'liq hisobga olinmasligi, mehnat bozoridagi talab va taklifning chuqur o'rganilmasligi natijasida kadrlarning hududlar kesimidagi taqsimotida muvozanatning buzilishi bilan bog'liq kamchiliklar kuzatildi. Bunga ayrim hududlarda pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyojning yillar davomida qondirilmasligiga sabab bo'lmoqda.

Tizimdagi bu kabi kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida keying yillar mobaynida ta'lim va kadrlar tayyorlash sohalariga oid bir qator farmon va qarorlar qabul qilindi.

“O‘zbekiston respublikasida ta’lim sifati va samaradorligini oshirish” loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida 28.04.2025 yildagi PQ-152-son O‘zbekiston respublikasi Prezidentining qarori, “Maktabgacha va maktab ta’limi xodimlarining uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish” to‘g‘risida 20.12.2024 yildagi 867-son O‘zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, “Maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarini attestatsiyadan o‘tkazish hamda ta’lim sifati monitoringini amalga oshirish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari” to‘g‘risida 14.02.2024 yildagi qaror va farmonlari tadqiqot ishimizga dasturiy amal bo‘ladi.

Intelektual salohiyati yuqori bo‘lgan mamlakatlar tajribasidan ma’lumki, fan, ta’lim va ishlab chiqarish o‘rtasidagi uzviylik va aloqadorlik mustahkam yo‘lga qo‘yilsa, bu yo‘nalishda malakali kadrlar tayyorlash, ularning bandligini ta’minlash hamda mamlakat iqtisodiyotida tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish mumkin bo‘ladi. Ayniqsa uzluksiz ta’lim tizimini rivojlantirishda yangi mexanizmlarning yaratilishi bugungi globallashuv jarayonlarining hayotiy zaruriyatiga aylandi va bu o‘z navbatida ta’lim sifati samaradorligini oshirish, uni modernizatsiya qilishni taqazo etadi. Biz tadqiqot ishimizda muammoni o‘rganish darajasida ta’lim sifati bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan bir qator olimlarning ishlarini tahlil qildik.

Inoyatov U.I. “Ta’lim sifati nafaqat ta’lim oluvchilar bilimining davlat standartlariga mosligi, balki ta’lim muassasasining muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatishi, shuningdek, har bir pedagog va rahbarning ta’lim xizmatlari sifatini ta’minlashdagi faoliyati natijasini ham belgilab beradi deb izohlaydi.

Qurbonov Sh. Va Seytxalilov E.larning tadqiqotlarida “ta’lim sifati deganda ta’lim jarayonining turli ishtirokchilari ta’lim muassasasi tomonidan ko‘rsatilayotgan ta’lim xizmatlaridan qanoatlantirilishi darajasi yoki ta’limda qo‘yilgan maqsad va vazifalarga erishish darajasi sifatida tushuniladi.

To‘xtasinov T. ta’lim sifatini boshqarish bu pedagogik jarayonni optimallashtirishga qaratilgan faoliyat bo‘lib , unda o‘qitish, o‘rganish va nazorat mexanizmlari uzviy bog‘liq holda boshqariladi deb izohlaydi.

Usmonboyeva M.I ta’lim sifatini boshqarishda tizimli yondashuv asosida o‘quv dasturlari, o‘qituvchi malakasi va natijalarining doimiy monitoring muhim omillardir deb ta’riflaydi.

Lazarev V.S. ta’lim sifatini boshqarish bu ta’lim natijalari va jarayonlarini oldindan belgilangan mezonlar asosida baholash, tahlil qilish va takomillashtirishga qaratilgan uzluksiz boshqaruv faoliyatidir deb izoh beradi.

Konarzhhevskiy Yu. A. talim sifatini boshqarish bu ta’lim tizimi elementlarini samaradorlik, natijaviylik va moslashuvchanlik asosida tashkil etilgan boshqaruv faoliyatidir deb ta’riflaydi.

Zagvyazinskiy V.I. talim sifatini boshqarish bu ta’lim jarayonida belgilangan pedagogik maqsadlarga erishish darajasini ta’minlovchi tashkil etilgan boshqaruv faoliyatidir deb izohlaydi.

Potashnik M.M. talim sifatini boshqarish bu har bir o‘quvchi uchun maksimal

ta'lim natijalariga erishishni ta'minlaydigan, pedagogik jarayonning barcha ishtirokchilari faoliyatini uyg'unlashtiruvchi boshqaruv tizimidir deb ta'rif beradi.

Ta'lim sifati samaradorligini oshirish keng jamoatchilik bilan bog'liq jarayon bo'lib bunda mavjud vakillik organlarining o'рни muhimdir, ular tomonidan sifatli ta'limni samarali ta'minlash rejalarini ishlab chiqish, umumiy o'rta ta'lim muassasalarini jihozlar va kerakli axborot resurslari bilan ta'minlash, sifatli ta'limga to'sqinlik qiluvchi omillarni hal etish chora-tadbirlarini ishlab chiqish asosiy usullardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Ta'lim sifati ta'limning maqsadi va strategiyasi bilan uzviy bog'liqdir, vaholankibugungi kunda umumiy o'rta ta'lim muassasalari ta'limida aniq belgilangan maqsadning yo'qligi, uning noaniqligi va an'anaviy ta'lim strategiyasining saqlanib qolingani uning samaradorligini yanada pasayishiga olib kelmoqda. Chunki ta'limning an'anaviy strategiyasi o'sib borayotgan insonning umumiy va maxsus qobiliyatlarini rivojlanishiga to'sqinlik qiladi, ayniqsa umumiy o'rta ta'lim bitiruvchilarining keying ijtimoiy moslashuvi imkoniyatlarini kamaytiradi.

Ta'lim jarayonining sifat samaradorligini oshirishga bir qator omillar ta'sir ko'rsatmoqda, jumladan:

- har bir o'quvchi uchun uning qobiliyati va qiziqishini hisobga olgan holda ta'limni rivojlantirishning universal psixologik va pedagogic nazariyaning yo'qligi;
- umumiy o'rta ta'lim maktablarining reproduktiv ta'lim texnologiyalari ommaviy amaliyotida fikrlashning samarali turlarini rivojlantirish emas, balki tayyor bilimlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan texnologiyalarni saqlab qolinganligi;
- o'qituvchilarning iqtidorli talabalar bilan ishlash bo'yicha nazariy jihatdan yo'naltirilmaganligi, ular tomonidan o'quvchilarning qobiliyatiga nisbatan kognitiv faolligi darajasiga yetarlicha baho berilmasligi;
- ta'limning ijtimoiy motivatsiyasining pasayishi; [15].

Olib borilayotgan tadqiqot davomida ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi yuqorida aniqlangan omillar tahlili va uni hal qilish usullari taqdim etiladi.

Tadqiqot davomida ta'lim sifatini boshqarishda quyidagi omillar o'rganildi:  
(1.2.1-jadvalga qarang).

#### 1.2.1-jadval

1.	Pedagogik omillar	O'qituvchilarning malakasi va tajribasi, dars berish uslublari (an'anaviy, interaktiv, innovatsion), o'quvchilarning individual o'zlashtirish darajasiga mos yondashuvlar
2.	Tashkiliy-boshqaruv omillari	Maktab boshqaruv tizimining samaradorligi, ichki nazorat va monitoring tizimlarining mavjudligi, strategic rejalashtirish va sifatni boshqarish siyosati
3.	Moddiy-texnik omillar	O'quv muassasasining infratuzilmasi (binolar, texnika, laboratoriyalar), raqamli vositalar va o'quv resurslari bilan

		ta'minlanganlik, ta'lim uchun mo'ljallangan byudjet hajmi uni sarflash sifatidir.
4.	Psixologik-ijtimoiy omillar	O'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasidagi ijtimoiy-psixologik iqlim, motivatsiya darajasi va o'zaro ishonch muhiti
5.	Me'yoriy-huquqiy omillar	Davlat ta'lim standartlari va ularning amaldagi ijrosi, ta'limni baholash tizimiga oid normative-huquqiy hujjatlar, akkreditatsiya va litsenziyalash tartiblaridir
6.	Ijtimoiy-iqtisodiy omillar	hududdagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi, oila daromadi va ota-onalarning ta'limga e'tibori, ta'limga e'tibori, ta'limga davlat va xususiy sektor sarmoyasi
7.	Madaniy va mintaqaviy omillar	Milliy qadriyatlar va ta'limga munosabat, mintaqaviy sharoitlar (shahar, qishloq farqi, til muammolari), axborotga ochiqlikva media madaniyatidir

Umumiy o'rta ta'lim muassasalari uchun eng muhim umumiy maqsad har bir shaxs uchun sifatli hayotni ta'minlashda kasbiy jihatdan o'zini-o'zi belgilaydigan zarur vaziyatlarda hatto kasbini o'zgartirishga qodir bo'ladigan shaxsning ijtimoiy va kasbiy harakatchanligini ta'minlaydigan, jamiyatdagi yangi ijtimoiy o'rin va vazifalarni tez o'zlashtira oladigan raqobatbardosh shxslarni shakllantirishdan iborat bo'lishi kerak. Buni amalga oshirish uchun umumta'lim maktablarida sifatli ta'limni ta'minlashda quyidagi takliflarni taqdim qilamiz:

O'quvchilarning individual, madaniy va milliy xususiyatlarini hisobga olgan holda o'qitish va shaxsiyatni rivojlantirishni tarkibiy qismlarga ajratishni ta'minlaydigan yangi pedagogik texnologiyalarning bazaviy va mintaqaviy standartlari asosida ishlab chiqish;

Shaxs manfaatlarining ustuvorligini ta'minlash, ta'limni insonparvarlashtirish, ta'lim shakllari xilma-xilligi, bilish asoslari va shakllari orqali demokratlashtirishni rivojlantirish, ta'limning huquqiy asoslarini ta'minlash va hakazo;

Ta'lim beruvchilar rahbarligida dars jarayonlarida o'quvchilarning mustaqil holda ijodiy faoliyat olib borishlariga sharoit yaratib berish ta'lim sifatini takomillashtirishning yana bar muhim samarali usullaridan biridir. Bu maqsadga erishish uchun o'quvchilarning bilim faolligini yanada faollashtiradigan va ta'lim sifatini rivojlantiradigan muhit yaratish birinchi o'rindagi vazifa hisoblanadi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, har bir o'quvchining imkoniyatlari va qobiliyatlarini hisobga olishni o'z ichiga oladigan ta'limni individuallashtirishni unutmash kerak.

Ta'lim sifatining eng muhim qiymati uning individuallashtirishi bo'lishi kerak. Ta'limni individuallashtirish bu har bir o'quvchi va o'qituvchilarning salohiyatini shakllantirish va ro'yobga chiqarish uchun eng qulay shart-sharoitlarni yaratib, ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchiga individual holatda yondashishdir.

Ta'lim sifatini boshqarish (ta'lim sifati menejmenti) ta'limni boshqarishning umumiy tuzilmasi tarkibiga kiradi. Bunda ta'lim sifati menejmenti rahbarning yakkaboshchiligi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan va amalda o'z samaradorligini ko'rsatgan boshqarishning chiziqli tuzilmasini inkor etmaydi. Sifat menejmentining joriy etilishi umumiy boshqaruv samaradorligini sezilarli darajada oshiradi – ta'lim muassasasi rahbari, xodimlari va manfaatdor jamoat tashkilotlari vakillari o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi. Vazifalarning bajarilish ketma-ketligi, vazifalarning o'zi, bajarish yo'llari, alohida usul va harakatlarning batafsil tartibi, ta'lim sifatini ta'minlovchi asos sifatida qaraladi.

Rahbarlikning roli jahatiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, har bir muassasa tashkilotida rahbarning roli kata ahamiyatga egaligini ta'kidlashimiz joiz. Agar rahbar bilimi, tarbiyasi, saviyasi jihatidan o'z ishchilariga o'rnak bo'la oladigan inson bo'lsa, o'sha joyda ish to'g'ri yo'lga qo'yiladi va rivojlanish bo'ladi.

Rahbar deganda odatda biz avvallari qattiqqo'l, boshqalar ustidan hukmronlik qilishni hush ko'radigan odamlarni tushunishga odatlangan edik. Lekin bugungi kunning zamonaviy rahbarlari o'z qo'l ostidagi kadrlarni har tomonlama qo'llab – quvvatlaydigan, ularni o'qishga izlanishga undaydigan, ishni to'g'ri tashkillashtira oladigan, ishxonada barcha zarur sharoitlarni yaratib bergan, do'stona muhitni yarata oladigan boshqaruvchilar ko'z oldimizga keladi.

Haqiqatdan ham bugunning talabi bilan olib qaraydigan bo'lsak, rahbarning jamoada tutgan roli nihoyatda kattaligini guvohi bo'lishimiz mumkin va o'z navbatida biror bir tashkilotga borilsa, eng avvalo uning yuzi sifatida qaraladigan eng muhim omillardan biri ham rahbarning madaniyati, saviyasi va ishning qanday tashkil qilinganligidir. Keying muhim omillardan biri bu xodimlarni jalb qilish bosqichidir. Eng avvalo, muassasada xodimlar eng yetakchi o'rinni egallaydigan jamoa hisoblanadi.

O'z jamoasiga eng yaxshi xodimlarni to'plasagina maqsadga erishgan hisoblanadi. Bunda eng zarur omil esa eng yaxshi ishchilarni jalb qilish boshqichidir. Bu borada esa bir tizim ishlab chiqalishi kerak. Xodimlar orasidagi sog'lom raqobat ham muhim rol o'ynovchi omillardan hisoblanadi. Xodimlarning ishtiroki qanchalik yuqori bo'lsa, ishning samarasi shuncha yaxshi natijaga erishadi. Hozirgi vaqtda xodimlarning ehtiyojlari faqat yuqori maosh va lavozimga ko'tarilish imkoniyatlari bilan chegaralanib qolmaydi. Bularga endi ishdagi moslashuvchanlik, telekommunikatsiya va boshqalar ham kiradi. Bu ehtiyojlarning qondirilishi xodimlarni g'ayratli va shijoatli qiladi.

Bundan tashqari, o'quv muassasalarida ta'lim sifati menejmenti tizimining mavjudligi kelajakda ta'lim jarayoni sifati va natijalarini baholashning tashqi nazorati tadbirlarini ichki nazorat va o'zini-o'zi baholash natijalaridan foydalanish bilan almashtirish imkoniyatini yaratadi, mazkur jarayonlarning jamoatchilik nazoratiga ochiqligi esa ta'lim muassasasiga bo'lgan ishonch darajasini oshiradi va albatta bu ham ta'lim sifatiga yaxshi ta'sir ko'rsatadi. Zeroki qayerda shaffoflik, ochiqlik bo'lsa, o'sha joyda haqiqiy rivojlanish bo'ladi.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini boshqarish masalasi zamonaviy ta'lim siyosatining markaziy yo'nalishlaridan biriga aylangan. Ta'lim jarayonining mazmuni, samaradorligi va natijadorligi aynan boshqaruv tizimi qanchalik puxta yo'lga qo'yilganiga bevosita bog'liqdir. Shu sababli, ta'lim sifatini ta'minlash va uzluksiz takomillashtirib borish uchun unga ta'sir etuvchi omillarni chuqur tahlil qilish va ularning boshqaruvdagi o'rnini aniqlash muhim ilmiy-amaliy vazifalardan biridir.

Mazkur dissertatsiya tadqiqot ishimizda quyidagi asosiy natijalarga erishildi: ta'lim sifatini boshqarishga ta'sir etuvchi omillar tizimi aniqlanib, ular ichki va tashqi omillar sifatida tasniflanadi. Ichki omillarga o'quv jarayonining mazmuni, o'qituvchilarning malakasi, o'quv muhitining sifati, o'quvchilar motivatsiyasi va boshqaruvning tashkiliy moddiy asoslari tashkil etadi. Tashqi omillarga esa davlat siyosati, meyoriy-huquqiy baza, jamiyat ehtiyoji, xalqaro tendensiyalar va texnologik rivojlanish darajasi tashkil etadi.

Umumiy o'rta ta'lim tizimida mavjud holat o'rganilib, asosiy muammolar aniqlashtirildi. Jumladan, sifat monitoringi tizimining sustligi, o'qituvchining uzluksiz malaka oshirishdagi uzilishlar, ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalarning yetarlicha qo'llanilmasligi asosiy to'siqlar sifatida ko'rsatildi.

Ta'lim tizimini zamonaviylashtirish jarayonlarini hisobga olgan holda uning asosiy tamoyillari, g'oyalari, uslubiy yondashuvlari va ko'rsatmalari bo'yicha bir qator o'zbek olimlar, jumladan, Begimqulov Sh., Musurmonova O., Mustafoyeva M.S., Adizov B.R., Axliddinov Sh.R., Abdullayev Yu.N., Maxmudov M.X., Ishmuhammedov R., Golish L.V. kabi tadqiqotchilar o'z ilmiy izlanishlarida biz ko'rib chiqayotgan ta'lim sifatini takomillashdagi muammolar, usul va vositalarni ilmiy va amaliy jihatdan asoslab, ta'limni ijodiy tashkil etish, umumiy o'rta ta'limni takomillashtirish, ta'limni demokratlashtirish va boshqa xususiyatlar bo'yicha izlanishlar olib borgan.

Xulosa tariqasida aytish mumkinki, umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash, baholash va tizimli boshqarish orqali ta'lim tizimining samaradorligi va raqobatbardoshligi sezilarli darajada oshadi. Ushbu tadqiqotda ishlab chiqilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ta'lim sifatini yaxshilashda muhim ahamiyatga ega bo'lib, ta'limni modernizatsiya qilishda metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Загвязинская Э. В. Анализ качества образования российских школьников: культурологический аспект. Образование и наука. – 2006. – №
2. Қурбонов Ш. ва Сейтахалилов Э. “Таълим сифатини бошқариш” Toshkent, “Турон-Иқбол”, 2006
3. Toshtemirova C.A. (2020) Ta'lim sifati samaradorligini oshirishda innovatsion g'oyalarning ahamiyati. Mug'allim xem Uzliksiz bilimlendiriu, 1(1). 56-61.

4. Mustafakulov A.A. Pedagogik kadrlarni yalpi sifat boshqaruvi sharoitida tayyorlash tizimi / Ped. f. f. dok.diss. -T.: 2019.

5. Klaus L.A. Quality Progress Sixth Quality in Educftion Listing / Quality Progress/ - 1996/ August. P. 336.

6. Toshtemirova S. A. (2020). Ta'lim sifati va uni demokratlashtirish ilmiy muammo sifatida // Uzluksiz ta'lim. № 1 (86). - S.5.

7. Селезнева Н.А. Качество высшего образования как объект системного исследования: лекция-доклад. - М.: 2001. - 79 с.